




“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026. bet.

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.



	Özbək dilində ibrani adlari	
20	Rəxşanə BABAZADƏ, Mustafa Zəririn “Yüz hədis və yüz hekayə” əsərində məsdər	175
21	Aytəkin ZEYNALOVA, Özbəkistan və naxçıvan mətbəxində folklor elementləri	178
22	Nazmina ABDISAMETOVA, Qorabuloq shevasida qo‘llanadigan idish-tovoq va uy anjomlari nomi	180
23	Mohlaroyim IZZATOVA, Folklor adabiyotining milliy tafakkur taraqqiyotidagi o‘rni	183

2-sho‘ba. O‘ZBEK SHEVALARI TADQIQOTLARI

1	Samixon ASHIRBOYEV, 20-yillar matbuoti: Faxri Kamolning singarmonizm talqini 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/IYBD6338	187
2	Abdulhay SOBIROV, O‘zbek areal tilshunosligining shakllanish va rivojlanish bosqichlari 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/NDQE1005	191
3	Shukurjon NORBAYEVA, Xorazm shevalari leksikasida substrat asosli birliklar 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/EMTE8289	195
4	Ibrohim DARVISHOV, Namangan qipchoq shevalarida sinonimlar 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/OKNB2844	200
5	Mo‘minjon TURDIBEKOV, Tojikistonda o‘zbek shevalarining o‘rganilishi 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/SDAQ1466	205
6	Murodqosim ABDIYEV, Salohiddin RAXMONOV, Chandir shevasining ba’zi grammatik xususiyatlari xususida (Pastdarg‘om tumani Chandir qishlog‘i misolida) 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/DHJ12368	209
7	Jo‘ra XUDOYBERDIYEV, Y.D.Polivanov va o‘zbek shevashunosligining ayrim masalalari	212
8	Alisher UBAYDULLAYEV, Qipchoq lahjasiga mansub ayrim qarindoshlik terminlarining lingvistik tahlili 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/YMZR8354	219
9	Navro‘z RAXMONOV, Qipchoq shevalarini o‘rganishning yangi bosqichi 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/YMGU2063	223
10	Zoxira XIDRALIYEVA, Iqon shevasiniung o‘zbek adabiy tili va ayrim o‘zbek shevalariga munosabati	225
11	Baurjan SAYFULLAYEV, O‘zbek va qozoq til kontaktlari natijasida shakllangan toshkent qozoq shevasining lingvistik tahlili	228
12	Zilola TILLABAYEVA, Samarqand viloyati qarluq shevalarida o‘zlashma qatlam va bilingvizm masalalari 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/GKIU1258	236
13	Vaziraxon ALIMBEKOVA, Adabiy tildagi lakuna va sheva leksikasi munosabati	239
14	Muattarxon TURDIXO‘JAYEVA,	243

**QORABULOQ SHEVASIDA QO'LLANADIGAN IDISH-TOVOQ VA UY ANJOMLARI
NOMI**
**NAMES OF UTENSILS AND HOUSEHOLD APPLIANCES USED IN KARABULOQ
DIALECT**

Nazmina ABDISAMETOVA,
J.A.Tashenov nomidagi
Qozog'iston universiteti talabasi
10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/PEJX3694

Annotation. *This article analyzes the naming of dishes and household items in the Karabulak dialect, their semantic patterns, and their role in folk life. In the course of the research, the lexical features of household items, kitchen utensils, and traditional household tools typical of the local dialect were analyzed. The article also highlights the national lifestyle, hospitality traditions, and the importance of ancient words preserved in the dialect through scientific examples.*

Key words: *Karabulak dialect, dishes, household utensils, dialect lexicon, national life, household items, Turkic vocabulary, folk culture*

O'zbek tili leksikasini sheva so'zlari bilan boyitish masalasiga jiddiy ahamiyat qaratish zarur. S.Ashirboyevning ta'kidlashlaricha, shevalar to'xtovsiz rivojlanib boradi, bu esa shevalarning doimiy ravishda nazariy jihatdan o'rganib borishni taqozo etadi va ilmiy-nazariy ahamiyatini keltirib chiqaradi.[S.Ashirboyev, 2021: 8]. O'zbek sheva va lahjalarini o'rganish hamisha dolzarb hayotiy ehtiyoj hamda zaruratni hosil qiladi. Tilimiz turkiy tillar ichida ko'p lahjaliligi bilan ajralib turadigan, shevalari bir-biridan keskin farqlanadigan tillardan biridir. O'zbek shevalarining leksikasini o'rganish hozirgi kundagi dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Xususan, o'zbek tili qarluq, qipchoq va o'g'uz lahjalariga mansub shakllarga ega bo'lib, asosan qipchoq lahjasiga kiruvchi Qorabuloq shevasi boshqa shevalardan fonetik, leksik, morfologik jihatlariga ko'ra sezilarli darajada farq qiladi. O'zbek tili shevalarini atroflicha o'rganish faqat lingvistik xarakterga ega bo'libgina qolmasdan, balki o'zbek xalqining shakllanish tarixini, ya'ni uning etnogenetik jarayonini aniqlashda asosiy o'rin egallaydi.

Til xalqning milliy qadriyatlari, madaniyati va turmush tarzini o'zida aks ettiruvchi muhim vositadir. Ayniqsa, shevalar xalqning kundalik hayoti, urf-odatlar va yashash muhiti haqida qimmatli ma'lumot beradi. O'zbek tili shevalari ichida Qorabuloq shevasi ham o'ziga xos leksik boyligi bilan ajralib turadi. Qorabuloq aholisi kundalik hayotda ishlatadigan idish-tovoq va uy anjomlari nomlari orqali xalqning milliy taomlari, ro'zg'or madaniyati va qadimiy an'alarini ko'rish mumkin. Bu atamalarning ayrimlari adabiy tilda kam qo'llansa-da, shevada hanuzgacha faol ishlatiladi.

Biz ishimizda hozirda Qorabuloq shevasi vakillari nutqida faol qo'llanadigan uy-ro'zg'or buyumlari nomlarning lingvistik jihatdan tahlil qildik. Qorabuloq shevasida idish-tovoq nomlari turmush tarzi bilan chambarchas bog'liq hisoblanadi. Ayniqsa, milliy taomlar tayyorlashda ishlatiladigan buyumlar alohida ahamiyatga ega.

Qozon. Qozon o'zbek xonadonlarining eng muhim oshxona buyumlaridan biri hisoblanadi. Unda asosan palov, sho'rva va turli milliy taomlar tayyorlanadi. Qorabuloq aholisi orasida "qora qozon" iborasi baraka va to'kinlik ramzi sifatida ham qo'llanadi.

Kapgir. Kapgir yog'da pishirilayotgan taomlarni suzish yoki qovurish jarayonida ishlatiladigan anjomdir. Bu so'z shevada keng tarqalgan bo'lib, ayrim hududlarda "suzgich" deb ham ataladi.

Cho'mich. Cho'mich suyuq ovqatlarni suzish uchun ishlatiladi. U ko'proq sho'rva yoki sut mahsulotlarini idishlarga quyishda qo'llanadi.

Toboq va lagan –[f.-tog'ora, idish; shamdon]. Katta hajmli taomlar tortiladigan idishlar Qorabuloq shevasida “*toboq*” yoki “*lagan*” deb yuritiladi. Ayniqsa, palov katta laganlarda dasturxonga tortiladi.

Kosa - Piyoladan kattaroq, asosan suyuqlik va turli ovqatlar solib ichish uchun ishlatiladigan idish. *Bir kosa sut. Ikki kosa qatiq*. Kosa asosan sho'rva yoki qatiq uchun ishlatiladi.

Piyola - tubidan yuqoriga tomon kengayib boradigan, kosadan kichik, taglikli idish (asosan choy ichish uchun ishlatiladi). *Chinni piyola. Sopol piyola*. Choy ichishda qo'llanadi, choy Qorabuloq aholisi hayotida muhim o'rin tutadi.

Xum va ko'za. Qadimda suv saqlash uchun sopoldan yasalgan xum va ko'zalar ishlatilgan. Ular suvni salqin saqlash xususiyatiga ega bo'lgan. Qorabuloq aholisi hozirda ham ushbu ro'zg'or buyumlaridan foydalanishadi.

Qorabuloq shevasida uy anjomlariga oid atamalar ham keng uchraydi. Bu buyumlar xalqning kundalik turmushi va yashash tarzi bilan bog'liq.

Sanduq - kiyim-kechak, ko'rpa-to'shak va qimmatli buyumlarni saqlash uchun ishlatilgan. U kelin sepining asosiy qismi hisoblanadi.

Ko'rpacha - mehmon kutish va dam olish uchun yoziladigan milliy jihoz hisoblanadi. O'zbek xonadonlarida mehmon uchun alohida ko'rpacha to'shash odat hisoblangan. Ushbu an'ana Qorabuloq aholisi orasida bugun ham mavjud.

Bolish (yostiq) - uxlash yoki suyanish uchun ishlatiladigan uy anjomi bo'lib, milliy naqshlar bilan bezatilgan turlari ham uchraydi.

So'ri (krovat, chorpoya, tapchan) - yoz faslida hovlida dam olish uchun quriladigan baland joydir. Unda oila a'zolari choy ichib, suhbat qurishadi.

Tandir - non yopish va milliy taomlar pishirish uchun ishlatiladigan muhim maishiy vosita hisoblanadi. Qorabuloqda tandir atrofidagi ishlar milliy an'analar bilan bog'liq holda bajarilgan.

Yengsak; yengcha – shv. *Yenglik; Jensä* – non yopishda ishlatiladigan buyum bo'lib, undan pishgan nonlarni tandirdab uzib olishda ishlatiladi. Tandirga qo'l tirsakkacha kiradigan holatlar inobatga olinib uzunroq qo'lqop shaklida issiqqa chidamli matodan tikiladi.

Räpidä – non yopish jarayonida qo'llaniladigan, usti mato bilan qoplangan, dumaloq shaklda yasalgan, nonni tandirga yopish uchun ichiga qo'l kiradigan maxsus joyga ega mahsulot.

Supurgi – supurish-sidirish, tozalash uchun burgan, shuvoq, makkasupurgi va sh.k.dan dastlab bog'lab yasaladigan ro'zg'or buyumi. *Shuvoq supurgi. Cho'ltoq supurgi*.

Qalamtarosh – [qalamni tarashlovchi] Tig'i sopi ichiga qayirib, yopib qo'yiladigan pichoqcha; pakki. Ikki tig'li qalamtarosh.

Čäqqi – kichkina pichoqcha bo'lib, cho'ntakda olib yurish uchun qulay hisoblanadi. U qayrilib tig' qismi g'ilofiga kiritilib qo'yiladi.

Sochiq – II. Yuz-qo'l yoki idish-tovoq artish uchun ishlatiladigan buyum. *Qo'l sochiq. Qozon sochiq*.

Gilam – [f.tuksiz gilam, palos] 1. Odatda jun, ipakdan to'qilib, yerga, polga to'shaladigan yoki bezak uchun xona devorlariga osib qo'yiladigan uy jihozi; badiiy to'qimachilik buyumi. *Ipak gilam. Turkman gilami*.

Xokandoz – chang-tuproq, axlat yig'ishtiradigan (kurakcha). Olov, kul, ko'mir, supurindi va sh.k.ni olish, tashish uchun ishlatiladigan dastali asbob; olovkurak.

Shuningdek, Qorabuloq shevasida ayrim so'zlar adabiy tildan farq qiladi. Bu farqlar asosan talaffuz va ma'no jihatidan namoyon bo'ladi. Masalan: “piyola” o'rnida ba'zan “kosa” so'zi qo'llanadi; “lagan” so'zi katta tovoq ma'nosida ishlatiladi; “cho'mich” ayrim hollarda “so'zgich” deb atalishi mumkin. Shevaga xos bunday so'zlar xalqning qadimiy turmush tarzi va

madaniy muhitini saqlab qolishda muhim ahamiyatga ega. Qorabuloq shevasida saqlanib kelayotgan idish-tovoq va uy anjomlari xalqning milliy turmush tarzi, mehmondo‘stligi va madaniy qadriyatlarini aks ettiradi. Ayniqsa, dasturxon atrofidagi urf-odatlar, choy ichish madaniyati va mehmon kutish an‘analari mazkur buyumlar orqali namoyon bo‘ladi.

Bu atamalar nafaqat til boyligi, balki xalqning tarixiy xotirasi va milliy o‘zligini saqlashda ham muhim ahamiyatga ega. Shu bois sheva leksikasini o‘rganish tilshunoslik va etnografiya uchun muhim manba hisoblanadi. Xulosa qilib aytganda, Qorabuloq shevasida qo‘llanadigan idish-tovoq va uy anjomlari xalqning milliy turmush tarzi, madaniyati va tarixiy an‘analarini o‘zida mujassam etgan muhim leksik qatlam hisoblanadi. Bu so‘zlar orqali xalqning kundalik hayoti, mehmondo‘stlik an‘analari va maishiy madaniyati haqida qimmatli ma’lumotlarga ega bo‘lish mumkin. Shevaga xos bunday leksik birliklarni o‘rganish va saqlash milliy til boyligini asrashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shevalarni o‘rganish bizga, nafaqat ularni lingvistik korpus yaratish uchun manba sifatida qo‘llashga, balki tarixiy merosimizning bir qismi bo‘lgan bunday so‘zlarni asrab-avaylashga hamda o‘rganishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent, 2021. – 347 b.
2. O‘zbek xalq shevalari lug‘ati. – Toshkent: Fan, 1971.
3. Ишаев А. Манғит шеваси лексикаси тарихидан // Ўзбек тили ва адабиёти масалалари. 1960. – 141 б.
4. Мадраҳимов О. Ўзбек тили ўғуз лаҳжаси лексикаси. – Тошкент, 1973. – 120 б.
5. Norboyeva Sh. Xorazm shevalari leksikasining onomasiologik tadqiqi: Filol.fan. dok...diss. avtoref. – Toshkent, 2024. – 270 b.
6. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent, 2006-2008.
7. Jo‘rayev M. O‘zbek xalq madaniyati va turmush tarzi. – Toshkent, 2010.
8. Mirzayev T. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – Toshkent, 2005.

